

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATOLOGIYA KAFEDRASI



«Tasdiqlayman»
Qo'lyozimlar bo'yicha prorektor
Boymuradov Sh.A.

26.06.2023 yil

**TEZ TIBBIY YORDAM
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Ta'lim sohasi:	110000 -	Pedagogika
	510000 -	Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari:	5111000 -	Kasb ta'limi (5510100-Davolash ishi)
	5510100 -	Davolash ishi

Toshkent -2023

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 25.04.2019 yil № 107-sonli buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tez tibbiy yordam" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining O'quv - uslubiy kengashi tomonidan 2023-yil 26-iyundagi 12-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Ibragimov N.K.

- TTA, 2-son davolash fakultetining Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent.

Nishonov M.R.

- TTA, 2-son davolash fakultetining Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasini assistenti.

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi:

Xakimov M.SH.


- Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Fakultet va gospital jarroxlik" kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.

Tashqi taqrizchi


Satvaldieva E.A.

- Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti "Anesteziologiya va reanimatologiya" kafedrasini mudiri, t.f.d., professor


"Anesteziologiya va reanimatologiya"
kafedrasini mudiri:


N.K. Ibragimov

TTA 2-son davolash
fakultetini dekani:


A.A. Imazarov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:


F.X. Azizova

1. Me'yoriy hujjatlar:

DTS: DTS: O`zDSt 36.2018:2016;

Malaka talablari: O`zR SSV 22.08.2017 yildagi 474-sonli buyruq bn;

O`quv reja: O`zR SSV Tibbiyot ta'limi muassasalaro mufofiqlashtiruvchi uslubiy kengashida 15.04.2017 yil 1-sonli hamda Oliy va o`rta maxsus, kasb ta'limi yo`nalishlari bo'yicha O`quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashida ma'qullangan 12.07.2018 yil 1000-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv reja asosida o`qitiladi.

2.O`quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o`rni

Tez tibbiy yordam fani zamonaviy tibbiyot amaliyotida muxim o`rin tutadi. Xozirgi vaqtda axoli orasida xar xil kasalliklar tufayli jarroxlik aralashuvlari, turli etiologiyali shoklar, komatoz xolatlar, bronxial astma, qon aylanishining to`xtashi, o`tkir zaxarlanishlar, TTIK sindromi, xarorat ta`sirotlari, gipertonik kriz, yurak ritm buzilishlari kabi xolatlar oshib bormoqda. Ayniqsa yuqoridagi sindromlar oqibatida o`lim ko`rsatkichi oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda tez tibbiy yordam fani UASH faoliyatida muxim o`rin egallaydi. tez tibbiy yordam fani amaliyotda uchraydigan kasalliklarni erta tashxislash, ularni samarali davolash usullarini takomillashtirish va profilaktika choralarini o`rgatishni, anesteziologik yordamni to`g`ri va sifatli tashkit etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yyadi. Bu fanni chuqur o`qitilishi UASH uchun xam nazariy xam amaliy axamiyat kasb etadi.

Dastur tez tibbiy yordam fanining asosiy bo`limlarini o`z ichiga oladi va tibbiyot oliy o`quv yurtlari talabalariga odam organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarning mohiyatini va ularning mexanizmini tushinib etish uchun zarur bo`lgan bilimlarni egallab olishga imkoniyat yaratadi. Bu o`z navbatida organizmning faoliyatini chuqurroq tushinib etishga asos yaratadi.

O`quv fanining maqsadi va vazifasi

Tez tibbiy yordam fanini o`qitishdan maqsad – UASH amaliyotida kerak bo`ladigan fan bo'yicha ma'lum hajmdagi bilimlarga, qobiliyat va amaliy ko`nikmalarga ega yuqori malakali mutaxassislar – umumiy amaliyot shifokorlari tayorlashdan iborat.

Fanning vazifasi:

- patologik sindromlar va kritik holatlar rivojlanishining etiopatogenetik omillarini, ularning diagnostikasi va klinikasini;

- organizm gomeostazi muhim ko`rsatkichlari: gaz almashinuvi, gemodinamika, suv-elektrolit almashinuvi, kislota-ishqor muvozanati buzilishlarining mexanizmlarini, ularni korreksiyalash tamoyillarini;

- infuzion-transfuzion terapiya va parenteral oziqlantirish tamoyillarini;
- kritik holatlar va patologik sindromlarda reanimasiya va intensiv davo tamoyillari bo'yicha bilimlarni shakllantirish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

-patologik sindromlar va kritik holatlar rivojlanishining etiopatogenetik omillarini, ularning diagnostikasi va klinikasini;

-organizm gomeostazi muhim ko'rsatkichlari: gaz almashinuvi, gemodinamika, suv-elektrolit almashinuvi, kislota-ishqor muvozanati buzilishlarining mexanizmlarini, ularni korreksiyalash tamoyillarini;

-infuzion-transfuzion terapiya va parenteral oziqlantirish tamoyillarini; kritik holatlar va patologik sindromlarda reanimasiya va intensiv davo tamoyillarini;

-sog'lom turmush tarzining targ'ibotini;

-klinik va funksional belgilarga asoslangan holda anesteziyaning adekvatligini baholash;

-klinik va laborator ma'lumotlarga asoslangan holda nafas etishmovchiligi darajasini aniqlash va baholashni;

-klinik va laborator ma'lumotlarga asoslangan holda o'tkir yurak qon tomir etishmovchiligining har xil shakllarida qon aylanishining buzilish darajasini aniqlash va baholashni;

-har xil kritik holatlar oqibatida rivojlangan bioximiyaviy gomeostaz va volemik holatlarning buzilish darajalarini aniqlash va baholashni;

-narkoz-nafas apparaturasini ishlashga tayyorlash, operasion-xavf darajasini aniqlash, mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish asoratlarini oldini olish;

- nazofarengial kateter va niqoblar orqali kislorod terapiyasini o'tkazish;

- klinik belgilarga asoslangan holda "klinik o'lim" holatining diagnostikasi, EKG ma'lumotlariga asoslangan holda yurak to'xtashi turlarini aniqlash;

- kasalxonagacha va kasalxona bosqichlarida yurak-o'pka va miya reanimasiyasini o'tkazish;

- infuzion-transfuzion davo o'tkazish (natriy bikarbonat, asosiy elektrolitlar va x.k.lar miqdorini xisoblash), ***ko'nikmalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.***

O'quv yili uchun taqsimlangan soatlar:

Yo'nalish (fakultet)	Umumiy yuklama	Auditoriya soati			Mustaqil ta'lim	Nazorat turi va shakli
		Ma'ruza	Amal.mashg (seminar)	Klinik oquv amal.		
Davolash ishi	147	12	27	46	62	Nazorat turi: ON, YaN (OSKI)
Tibbiy pedagogika	147	12	27	46	62	Nazorat turi: ON, YaN (OSKI)

2.Ma'ruza mashg'ulotlari

1-jadval

No	Ma'ruza mashg'ulotlari mavzusi	Dars soatlari hajmi
11 - 12 SEMESTR		
1	O'zbekiston Respublikasida shoshilinch tibbiy yordam asoslari va shoshilinch tibbiy yordam xizmati tuzilmasi. Shoshilinch tibbiy yordam kursatishning yuridik va etik jixatlari.	2,0
2	Massiv qon yo'qotish sindromi.	2,0
3	O'tkir buyrak shikastlanishi	
4	O'tkir jigar yetishmovchiligi	2,0
5.	Isitma sindromida tez tibbiy yordam	2,0
6	Bosh miya utkir ishemiyasi sindromida shoshilinch yordam tamoyillari	2,0
	jami	12

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akademik guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

3. Amaliy mashg'ulotlar

2-jadval

№	Mashg'ulot mavzusi	Soat xajmi
1	Halokatlar tibbiyoti va favqulodda vaziyatlar ta'rifi. Halokatlar tasnifi. Halokatlarning tibbiy tavsifi. Dastlabki birlamchi tekshirish o'tkazish. Ikkinchilamchi tekshiruv va qayta baxolash. Tez tibbiy yordam ko'rsatish.	5
2.	Arterial gipotoniya. Xushini yukotish, kollaps, shok. Turlari. Gipovolemik va Qayta taqsimlanuvchi shok. Klinikasi, diagnostikasi, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish.	5
3.	Gemorragik sindrom. Massiv qon yo'qotish, gomologik qon, DVS sindromi klinikasi, diagnostikasi. Tez tibbiy yordam ko'rsatish usullari. UASH taktikasi.	5
4.	O'tkir ekzogen zaharlanish sindromi. Zaxarlanishlar. FOB, barbituratlar, narkotik vositalar, alkogol surrogatlari Qo'ziqorin, kislota va ishqorlar bilan zaxarlanish. Klinikasi, diagnostikasi, zaxarlanishda birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, UASH taktikasi.	5
5.	Koma va komatoz holatlar. Diagnostikasi. Diabetik, Jigar va uremik komalar. Klinikasi, diagnostikasi, tez tibbiy yordam ko'rsatish. UASH taktikasi.	5
6.	Harorat ta'siroti va elektrotravma. Elektrotravma, kuyish kasalligi, sovuq qotish. Klinikasi, diagnostikasi, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish. UASH taktikasi.	5
7.	Kardial o'lim sindromi. Tushunchasi, etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish. Kardiogen shok. O'pka-yurak reanimatsiyasi (O'YUR) o'tkazish tamoyillari. UASH taktikasi.	6
8.	Nafas siqishi, bo'g'ilish. Bronxial astma xuruji, astmatik status. Soxta krup. O'tkir o'pkali-yurak. Diagnostikasi. Tez tibbiy yordam. UASH taktikasi.	6

9.	Arterial gipertoniya. Gipertonik kriz. Turlari, kechishi, klinikasi, diagnostikasi. Tez tibbiy yordam. UASH taktikasi.	5
10.	Yurak ritmining buzilishi. Paroksizmal taxikardiya. Qorinchalar fibrillyatsiyasi. MAS sindromi, diagnostikasi. Tez tibbiy yordam. UASH taktikasi.	5
11.	Ko'krak qafasidagi og'riq sindromi. Diagnostikasi. Miokard infarkti. Kardiogen shokda birinchi yordam. Yurak astmasi, o'pka shishi. Tez tibbiy yordam. UASH taktikasi.	6
12.	Qorindagi og'riq sindromi. Mezenterial tomirlar trombozi. Ichak, jigar, buyrak sanchig'i. Tez tibbiy yordam. UASH taktikasi.	5
13.	Isitma sindromi. Sepsis. Klinikasi, diagnostikasi. Septik shokda tez tibbiy yordam ko'rsatish. UASH taktikasi.	5
14.	O'tkir bosh miya ishemiyasi sindromi. Nevrologik koma. Bosh miya shishi. Klinikasi, diagnostikasi, tez tibbiy yordam ko'rsatish. UASH taktikasi	5
	Jami: 73 soat	73

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

5. Mustaqil ta'lim

№	Mashg‘ulotlar temasi	Soatlar
1.	Obstruktiv shok. UATE. Etiologiya, patogenez, klinikasi va tezkor chora tadbirlar.	3,0
2.	Neyrogen shok. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolash.	3,0
3.	Koagulopatiyalar. Turlari.	3,0
4.	XOB bilan zaxarlanishlar.	3,0
5.	Og‘ir metal tuzlari bilan zaxarlanishlar.	3,0
6.	Ekstrakorporal detoksikatsiya usullari.	3,0
7.	Yomon sifatli gipertermiyani davolash.	3,0
8.	Postreanimatsion kasallik.	4,0
9.	Vegetativ xolat. Sun‘iy medikamentoz koma xaqida tushuncha.	4,0
10.	Krupoz pnevmoniyada utkir nafas etishmovchiligi. Intensiv terapiya	3,0
11.	Stranguliatsion asfiksiya. UASH taktikasi	3,0
12.	Cho‘kishda shoshilinch yordam tamoyillari.	3,0
13.	Yog‘li emboliya sindromi.	3,0
14.	Yomon sifatli gipertenziyani davolash.	3,0
15.	WPW sindromi	3,0
16.	Uzoq bosilish (Krash) sindromi	3,0
17.	Talvasa sindromida intensiv davo printsiplari.	3,0
18.	Ilon va xashoratlar chaqishi.	3,0
19.	Tranfuzion asoratlar. Profilaktikasi, intensiv davosi.	3,0
20.	Evtanaziya xaqida tushuncha.	3,0
	Jami:	62,0

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- Tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- Bemorlar kurasiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish;

- Axoli orasida sanitar oqartuv ishlarni suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- Vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;

- Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) echish.

- Grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;

- Krossvordlar tuzish va echish;

- Prezentasiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

Fan bo'yicha kurs ishi. Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan.

5. Amaliy kunikmalar ro'yxati.

1. Geymlix usulini qo'llash
2. Oksigenoterapiya o'tkazish texnikasi, ko'rsatmalari
3. Ambu qopi yordamida o'pka sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish
4. Laringospazm xolatida birinchi yordam ko'rsatish
5. Cho'kish xolatida nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash
6. Elektrotravmada birinchi yordam ko'rsatish
7. Bosh miya jarohatida birinchi yordam ko'rsatish
8. Epileptik huruj paytida yuqori nafas yo'llari obstruksiyasini bartaraf etish
9. Yurak – o'pka reanimatsiyasini o'tkazish.
10. Oshqozonni zondlash va yuvish.
11. Qon aylanish to'xtashida (qorinchalar fibrillyatsiyasida) defibrillyatsiya o'tkazish.

1. Yuqori nafas yo'llarida yot jism bo'lganda Geymlix usulini qullash.

Maqsad: talabalarga yuqori nafas yo‘llarida yot jism bo‘lganda Geymlix usulini qo‘llashni o‘rgatish.

Ko‘rsatma: yuqori nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini buzilishi.

Kerakli anjomlar: volontyor

№	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga umumiy yondoshiladi. Bemor oyoqlarini elka kengligida ochishni aytiladi.
2	Bemorni qo‘llar bilan orqa tomondan quchoklab olinadi va qo‘llarni mushtum qilinadi.
3	Qo‘llarni qorin devorining o‘rta chizig‘i bo‘yicha kindik va xanjarsimon o‘siq soxasida joylashtiriladi.
4	Qo‘lni pasga va bosh yo‘nalishi bo‘yicha tepaga bosiladi.
5	Agarda bemor xushsiz xolatda bo‘lsa, uni chalqanchasiga yotqizib, oyoklarini ochiladi.
6	Xanjarsimon o‘siq va kindik orasi soxasiga bitta qo‘lning kaft asosi qo‘yiladi, ikkinchi qo‘l uning ustiga qo‘yiladi.
7	5-10 marta bosh tomonga yunaltirilgan itaruvchi xarakatlar bajariladi.
8	Og‘iz bo‘shlig‘i sanatsiya qilinadi.

2.O‘tkir nafas etishmovchiligi darajasini aniqlash.

Maksad: talabalarga o‘tkir nafas etishmovchiligi paytida shoshilinch yordam ko‘rsatishni o‘rgatish.

Ko‘rsatma : O‘tkir nafas etishmovchiligi.

Kerakli anjomlar: maneken Anka, fonendoskop, sekundomer

№	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga umumiy yondashiladi va o‘tkir nafas etishmovchiligining darajasi aniqlanadi.
2	Bemor holatini aniqlanadi. Teri qoplami rangi aniqlanadi. YUUS, NOS ni aniqlanadi.
3	O‘pka auskultatsiya qilinadi
4	NOS 1min/ 25-28 ta bo‘lsa, mustaqil nafasda kislorodoterapiya o‘tkaziladi.

5	NOS 1 min.da/40 tagacha bo'lsa, kislorodoterapiyani niqob orqali 50% li kislorod bilan o'tkaziladi.
6	NOS 1min.da/40ta dan yuqori bo'lsa, SO'Vga kursatma.

3. Kislorodoterapiya o'tkazish.

Maqsad: talabalarga kislorodoterapiya o'tkazishni o'rgatish.

Ko'rsatma: o'tkir nafas etishmovchiligi.

Kerakli anjomlar: endonazal kateterlar, niqoblar.

№	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga yondoshiladi va kislorod terapiyaga bo'lgan kursatmalar aniqlanadi: gipoksik, tsirkulyar, to'qima va gemik gipoksiya.
2	Kislorodoterapiya usuli aniqlanadi: endonazal katetrlash, niqoblar, endotraxeal yoki traxestomik trubka, GBO yordamida.
3	Kislorodoterapiya berilayotgan havoda doimiy konsentratsiyada, uzoq muddat va uzluksiz o'tkazilishi lozim.
4	Mustaqil nafas bo'lganida endonazal kateterlardan o'lchamiga muvofiq ravishda paski burun yo'lga kiritish orqali foydalaniladi (katetr o'lchami burun qanotlaridan quloq yostqikchasigacha bo'lgan masofa)
5	Mustaqil nafas mavjud bo'lmaganda niqoblar yordamida yuqori konsentratsiyadagi kislorod beriladi.

4. SO'V ni Ambu qopcha yordamida o'tkazish.

Maqsad: talabalarga SO'V ni Ambu qopcha yordamida o'tkazish texnikasini o'rgatish.

Ko'rsatma: Nafas etishmovchiligi

Kerakli anjomlar: Ambu qopchasi, maneken Anka

	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga umumiy yondoshiladi.
2	Nafas borligini aniqlanadi.
3	Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini taminlalanadi: og'iz bushlig'i sanatsiyasi, boshni orqaga tashlash, pastki jag'ni oldinga surish, xavo o'tkazgichlardan foydalanish.
4	Mos o'lchamdagi niqobni topib, undan tug'ri foydalanish kerak bo'ladi. Ko'krak qafasi ekskurtsiyasini nazorat qilgan xolda Ambu qopchasi ritmik siqiladi.

5	Es-xush darajasi, gemodinamik ko'rsatgichlar, mustaqil nafas paydo bo'lishi monitoringi o'tkaziladi.
---	--

5. Nafas siqilganda yordam algoritmi.

Maqsad: talabalarga nafas siqilganda birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Ko'rsatma: Nafas siqilishi.

Kerakli anjomlar: maneken Anka, Ambu qopchasi, xavo o'tkazgich

№	Bajarish boskichlari
1	Xavf sababi aniqlanadi.
2	Xavfli zonadan yoki sirtmoqdan bo'shatib, xavo kelishini ta'minlanadi.
3	Shaxsiy muxofaza choralari ko'riladi.
4	Agar bemor shikastlangan va xushsiz bo'lsa, nafas yo'llari ochib, tozalanadi.
5	Nafas borligiga ishonch xosil qilish uchun ko'krak qafasi ekskursiyasi, o'pka auskultatsiyasi o'tkaziladi.
6	Agar mustaqil nafas bo'lmasa tezda SO'V : og'izdan og'izga, og'izdan – burunga, «Ambu» qopchasi yordamida o'tkazish.

6. Cho'kishda shoshilinch yordam algoritmi.

Maqsad: talabalarga cho'kishda birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Ko'rsatma: Cho'kish

Kerakli anjomlar: maneken Anka

№	Bajarish boskichlari
1	Xavf mavjudligini aniqlanadi. Cho'kayotgan insonni suvdan olib chiqib xavfsiz joyga olib o'tiladi.
2	Xushsiz xolatda bo'lsa, nafas yo'llarini tozalanadi.
3	Xavo yo'llari o'tkazuvchanligini boshini orqaga bukib, pastki jag'ini oldinga chiqarib ta'minlanadi.
4	Nafas borligini aniqlanadi.
5	Agar nafas olayotgan bo'lsa, nafas yo'llaridan suvni chiqarishga xarakat qilinadi, bemor yonboshga yotqiziladi.
6	Agar nafas olmayotgan bo'lsa, tezda SO'V o'tkaziladi.

7	Nafas olishni boshlasa yonboshga yotqiziladi.
---	---

7. Elektrotravmada shoshilinch yordam algoritmi.

Maqsad: talabalarga elektrotravmada birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Ko'rsatma: Elektrotravma

Kerakli anjomlar: maneken Anka

№	Bajarish boskichlari
1	Xalokat joyida elektr toki manbai aniqlanadi.
2	Elektr toki ta'siri to'xtatiladi.
3	Tokning kirish va chiqish teshiklari topiladi.
4	Qon aylanish va nafas to'xtaganda o'pka-yurak reanimatsiyasi o'tkaziladi.
5	EKG – monitoring va intensiv terapiya o'tkaziladi.
6	Jaroxatlarga aseptik bog'lam qo'yiladi.

8. Bosh miya jaroxatida birinchi yordam.

Maqsad: talabalarga bosh miya jarohatida birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Ko'rsatma: bosh miya jarohati.

Kerakli anjomlar: maneken Anka

№	Bajarish boskichlari
1	Voqea sodir bulgan joy ko'riladi va havf mavjudligini aniqlanadi.
2	Bemor organizmining xayotiy funktsiyalari tekshiriladi va baholanadi.
3	Bemor imkon boricha harakatsiz holda yotqiziladi.
4	Kursatmalar asosida oksigenoterapiya, o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkaziladi.
5	Bemorga og'riksizlantirish amaliyoti o'tkaziladi.

9. Bemorda epileptik huruj paytida til orqaga ketish natijasida yuqori nafas yo'llari obstruksiya paytida shoshilinch yordam ko'rsatish.

Maqsad: talabalarga epileptik xuruj paytidagi yuqori nafas yo'llari obstruksiyasi yuz berganda shoshilinch yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Ko'rsatma: epileptik xuruj paytidagi yuqori nafas yo'llari obstruksiyasi.

Kerakli anjomlar: maneken Anka

№	Bajarish bosqichlari
1	Assosiy davo usuli boshni orqaga tashlash va paski jag'ni oldinga surish. Bu nafas yo'llarini til bilan bekilib qolishidan saqlaydi.

2	Boshni yonga burish, bu balg'am aspiratsiyasini oldini oladi, og'iz bushlig'ini kuzdan kechirish va uni sanatsiyasi albatta o'tkaziladi.
3	Til fiksatsiyasi: agar mustaqil nafas tiklanayotgan bo'lsa havo o'tkazish kiritiladi (bu tilni tishlab olishdan saqlaydi), aks holda SO'V Ambu qopchasi yordamida o'tkazishga harakat qilinadi, so'ng traxeya intubatsiyasi qilinadi.
4	Tutqanoqqa qarshi dori vositalari vena ichiga yuboriladi(relanium 10mg, natriy oksibutrat 2-4g).
5	Gemodinamik ko'rsatkichlari korrektsiyasi va monitoringi olib boriladi .
Jami	

10. Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.

Maqsad: talabalarga yurakni bilvosita massaj qilish texnikasini o'rgatish.

Ko'rsatma: qon aylanishi to'xtashi.

Kerakli anjomlar: maneken Anka

№	Bajarish bosqichlari
1.	Bemorga umumiy yondoshiladi. Bemorni to'g'ri yotkizish kerak (qattiq joyga yotqizish shart)
3.	Ko'krak qafasi ikkala qo'l kafti bilan, to'sh suyagi xanjarsimon o'sig'idan 2,5 sm yuqoridan bosiladi. Bunda umurtqa pog'onasi yo'nalishida 3-5 sm chuqurlikda bosiladi.
4.	Muolajani bajaruvchi elka bug'imini to'g'ri tutishi, tirsak bugimlarini bukmasligi kerak. Massaj zarb bilan va ritmik bo'lishi kerak.
5.	Bo'shashish vaqtida to'shga bosishni to'xtatish kerak, lekin kaftni to'shdan olmaslik kerak.
6.	Muolaja effektivligini baxolash uchun uyqu arteriyalaridagi pulsni tekshirib turish kerak.
7.	Massaj va SO'V nisbati 30:2 buladi.
8.	Massaj soni minutiga 100-120 marta o'tkazilishi tavsiya qilinadi.
9.	Nafas yullari o'tkazuvchanligi tug'risida ishonch xosil qilinadi. 2 marta nazorat nafasi beriladi.
10.	Agar nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilgan bo'lsa, nafas yo'llari o'tkazuvchanligi boshni orqaga tashlash bilan taminlanadi.

11. Barbiturat tabletkalari bilan o'tkir zaharlanganda shoshilinch yordam.

Maqsad : talabalarga og‘iz orqali oshqozon yuvish va medikamentoz muolajalarni o‘tkazishni o‘rganish.

Ko‘rsatma: fenobarbital tabletkalar bilan o‘tkir zaharlanish.

Kerakli anjomlar: oshqozon yuvish uchun zond, maneken Anka

№	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga umumiy yondashiladi
2	Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligi taminlanadi: traxeya intubatsiyasi, keyinchalik SO‘V ga o‘tkaziladi
3	Og‘iz orqali oshqozonga 9 mm zond orqali 200 ml tuzli iliq eritma yuborilib, so‘ng oshqozon saqlanmasi chiqarib tashlanadi. Oshqozondan to toza suv chiqquncha yuviladi.
4	Zond orqali aktiv ko‘mir (50-100 g suv yoki sorbital bilan aralashtiriladi), shuningdek surgilar (magneziy sulfat yoki natriy sulfat 25-30g) yuboriladi.
5	Gemodinamika korrektsiyalanganuncha kolloid-kristaloid eritmalar infuzion vena ichiga yuboriladi. Samara bermasa, vazopressor aminlar yuboriladi.
6	Jadallashtirilgan ishqoriy diurez: natriy bikarbonat 250-500 ml (fenobarbital kuchsiz kislotaga bo‘lganligi sababli dori vositasini chiqarilishini ta‘minlaydi)

12.Defibrillyatsiya o‘tkazish texnikasi.

Maqsad: talabalarga defibrillyatsiya o‘tkazish texnikasini o‘rgatish.

Ko‘rsatma: qorinchalar fibrillyatsiyasi

Kerakli anjomlar: defibrillyator, elektro‘tkazuvchi gel

Kerakli anjomlar: , maneken Anka, elektrtkazuvchi gel, doka

№	Bajarish bosqichlari
1	Bemorga umumiy yondashiladi.
2	Bemorni tug‘ri xolatda joylashtiriladi.
3	Elektroimpuls terapiya shart -shoritlariga rioya qilish kerak : reanimatsiya qatnashchilaridan xech biri bemor krovatiga tegishi kerak emas.
4	Elektroimpuls terapiya texnikasiga rioya qilish kerak : defibrillyatorning bir elektrodi to‘shning o‘ng yoni, yuqori soxasi o‘mrov ostiga, ikkinchi elektrod qo‘ltiq osti o‘rta chizig‘i bo‘yicha chap so‘rg‘ichning lateral tomoniga o‘rnatiladi.
5	Ko‘krak soxasi yuzasi elektrtkazuvchi gel yoki tuzli eritmaga botirilgan doka bilan ishlov beriladi.
6	Defibrilyator elektrodleri tayyor bo‘lgach ko‘krak qafasiga qo‘yiladi.

**6.Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash va
nazorat qilish mezonlari**
**Anesteziologiya va reanimatologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarini joriy
baholash (JB) shakllari**

Talabalar bilimni baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi.

Talabalar bilimni joriy baholash mezonlari

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentasiyalar
Baholash mezonlari	<p>86-100 ball “a'lo” -mavzuga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; -mavzu bo'yicha o'z fikrini to'liq bayon etish, barcha berilgan savollarga to'liq to'g'ri javob berish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, ijodiy fikrlash, auditoriyada mavzuni muhokama qilishda faol qatnashish; -mavzu bo'yicha vaziyatli masalalarni echish, test savollariga to'liq va to'g'ri javob berish; -erkin tasavvurga ega bo'lib, kerak bo'lganda o'qituvchi bilan o'z fikrini almashish.</p> <p>71 – 85 ball “yaxshi” -mavzuga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; -mavzu bo'yicha o'z fikrini etarli darajada bayon etish, barcha berilgan savollarga to'g'ri javob berish; - tahlil qilish va xulosa chiqarish, ijodiy fikrlash, auditoriyada mavzuni muhokama qilishda qatnashish, -mavzu bo'yicha amaliy ish natijalari bo'yicha mustaqil tekshirish bayonnomasini to'ldirish; -berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lish.</p> <p>55-70 ball “qoniqarli” -mavzu bo'yicha o'z fikrini bayon etish, barcha berilgan savollarga to'g'ri javob berish; - auditoriyada mavzuni muhokama qilishda qatnashish, -mavzu bo'yicha amaliy ish natijalari bo'yicha mustaqil tekshirish bayonnomasini o'qituvchi yordamida to'ldirish;</p>

	-berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha tasavvurga ega bo'lish. 0-54 ball "qoniqarsiz" -mavzu bo'yicha o'z fikrini bayon etolmaslik, berilgan savollarga javob berolmaslik; - auditoriyada mavzuni muhokama qilishda qatnashmaslik; -mavzu bo'yicha amaliy ish natijalari bo'yicha mustaqil tekshirish bayonnomasini o'qituvchi yordamida to'ldirish; -berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha tasavvurga ega emaslik -berilgan uy vazifasi mavzusi buyicha tasavvurga ega emaslik.		
	Reyting baholash turlari	Maks. ball	O'tkazish joyi
	Joriy nazorat:	50	Amamliy mashg'ulot davomida
	Oraliq nazorat (og'zaki	20	8-mashg'ulotdan keyin
	Yakuniy nazorat (og'zaki)	15	Sikl tugagandan so'ng
	TEST	15	Sikl tugagandan so'ng
	Jami	100	

7. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Sharipov A.M. taxriri ostida. Halokatlar tibbiyoti. Darslik. - Toshkent.ToshPTI. 2019 y.
2. Eshonov O.Sh. Anesteziologiya va reanimatologiya. Darslik. - Toshkent. O'qituvchi. 2010 y.
3. Собиров Ж.М., Отахонов Ш.Э. Шошилишч холатлар. Дарслик.- Тошкент.Мед. 2006 й
4. Vayman, Avakov V.E. Darslik. M, Kriticheskie i neotlojnye sostoyanie v meditsine. 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. J. E. Tintinalli, J. S. Stapczynski , O. J. Ma , D. M. Yealy , Garth D.Meckler, D. M. Cline. Tintinalli's Emergency Medicine: A Comprehensive Study Guide. 9th edition. Textbook. New York. McGraw-Hill Education. 2019 y.
2. Рогозина И. В. Медицина катастроф. Учебник. Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2014 г.
3. Левчук И. П., Третьяков Н. В. Медицина катастроф: курс лекций. Учебник. -Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2013 г.
4. П. И. Сидоров, И. Г. Мосягин, А. С. Сарычев. Медицина катастроф. Учебное пособие для студентов мед. Вузов. - 2-е изд. - Москва. Академия. 2012 г.
5. R.A. Partridge Oxford American Handbook of Disaster Medicine Oxford University Press. Textbook. New York. Oxford University Press. 2012.
6. J. A. Marx, R. S. Hockberger, R. M. Walls, J. G. Adams. Rosen's emergency medicine : concepts and clinical practice. 7th ed. Textbook. Philadelphia. Mosby. 2010
7. Под ред. А.Х. Ходжибаева, Д.М. Сабирова, А.В. Алимова, А.М. Шарипова, З.С. Умаровой., В.Ю. Бекетовского, Батманова АЛ. Руководство по экстренной медицинской помощи (продвинутый уровень). Практическое руководство.Ташкент. ТашИУВ. 2008 г.
8. Сахно В.И. Организация медицинской помощи населению в чрезвычайных ситуациях. Учебное пособие. Санкт Петербург. Фолиант. 2003 г.
9. Сахно И. И. Медицина катастроф. Учебник. Москва. ГОУ ВУНМЦ МЗ РФ, 2002 г.
10. Сумин С. А. Неотложные состояния. Учебник. Москва. Медицина. 2002 г.

Internet resurslar

<http://www.rusanesth.com>

<http://www.medalfavit.ru>

<http://www.medlit.ru> <http://narkoz.ru> <http://medi.ru>